

IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYIRIMLARI TAHLILI

Nodirbek Nosirjon o'g'li Xabibillayev

Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

(morfemik1997@gmail.com)

Tel: +998944979772

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13999669>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi bugungi kunda tarkibga ajratilishi murakkab hisoblangan birliklardan biri bo'lmish izofali birikmalarning morfemik tuzilishiga doir nazariy ma'lumotlarga bag'ishlanadi. Muallif bunday birliklar borasida boshqa manbalarda bildirilgan fikrlarni bir-biri bilan taqqoslash orqali ushbu bahsli mavzuga o'z shaxsiy qarashlarini bayon etgan. Natijada izofalarning tarkibga ajratilmasligi borasida xulosa qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: izofa, izofali birikma, tarkib, morfema, so'z yasalishi, qo'shib yoziluvchi izofa, ajratib yoziluvchi izofa.

Abstract. This research work is devoted to the theoretical information on the morphemic structure of isophatic compounds, which is one of the units that are difficult to separate into content. The author expressed his personal views on this controversial topic by comparing the opinions expressed in other sources about such units. As a result, it was concluded that the additions cannot be separated into the composition.

Basic words and phrases: isofa, isopha compound, composition, morpheme, word formation, isofa that is written by addition, isofa that is written separately.

Аннотация. Данная исследовательская работа посвящена теоретическим сведениям о морфемном строении изофатических соединений, которое относится к числу трудноразделимых по содержанию единиц. Автор высказал свой личный взгляд на эту спорную тему, сравнив мнения, высказанные в других источниках о подобных агрегатах. В результате был сделан вывод, что добавки не могут быть разделены на композиции.

Основные слова и словосочетания: изофа, соединение изоф, состав, морфема, словообразование, изофа, которая пишется сложением, изофа, которая пишется раздельно.

Izofali birikmalar bu fors va arab tillarida aniqlovchi-aniqlanmish yoki qaratqich-qaralmish munosabatidagi so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. Ularning tarkibga ajratilishi borasida ham bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, Baxtiyor Mengliyev o'zining "So'z yasalishi lug'ati" kitobida shu kabi so'zlarning tarkibga ajratilishini keltirib o'tgan. Ammo lug'atda kelayotgan *vaqt-chog'-lik* so'zi imlo lug'atga zid. Sababi ushbu so'zda izofa vazifasini bajarayotgan *-i* morfemasi tashlab ketilgan.¹ Xuddi shuningdek, *vaqtixushlik*, *vaqtibevaqt* so'zlari ham ana shu tarzda tahlil qilingan. "O'zbek tili grammatikasi" kitobida esa, bunday izofali birikmalarning qo'shib yozilishi va ularning o'zbek tilida bir leksemaga teng kelishi ko'rsatib o'tilgan.² Bu esa ularning tarkibga ajratilmasligini anglatadi. Bunday birliklarning qo'shib yozilishi yoki ajratib yozilishi borasida "O'zbek tilining katta imlo lug'ati"da aniq fikrlar keltirilgan: Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga *-i* shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga *-yi* shaklida qo'shiladi: *dardi bedavo*,

¹ Mengliyev B. va boshq. O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati. – Toshkent, 2007. 115-b.

² Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. 263-б.

nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan soʻzlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan soʻzlar qoʻshib yoziladi: *gulbeor* (*guli beor*), *dardisar* kabi.³ “Oʻzbek tili grammatiksi”da yana keltirilishicha, izofali birikmalar tilga qattiq oʻrnashib olganidan soʻng izofa qismi tashlanadi va qoʻshma soʻz sifatida qoʻshib yoziladi. Masalan, *gulbeor*, *joynamoz*, *gulhamishabahor*...⁴ ushbu mulohaza amaldagi imlo lugʻatida berilayotgan qoʻshib yoziladigan izofali birikmalar haqidagi qoidaga qaraganda ancha oʻrinlidir. Sababi *bulbuligoʻyo*, *dardisar* va *gulhamishabahor* kabi qoʻshib yoziladigan izofali birikmalarning tarkibidagi qismlar oʻzbek tilida mustaqil qoʻllana oladi. “Oʻzbek tili grammatiksi”da keltirilgan yana bir holat diqqatimizni tortdi. Unda yozilishicha, oʻzbek tilining imlo lugʻatida *arz-hol* soʻzi juft ot sifatida keltirilgan. Ammo ushbu soʻz forsiy izofa hisoblanadi. Izofa tushirilganida (-i morfemasi) soʻzlar chiziqcha bilan emas, qoʻshib yozilishi kerak (*gulbeor*, *joynamoz*, *gulhamishabahor* soʻzlari kabi). Ammo ushbu soʻz SSSR davridan beri imlo lugʻatlarda haligacha tahrirlanmay ana shunday juft ot sifatida kelayotganligi ajablanarli holat.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida izofiy birikmalarning aksariyati imloda qoʻshib yoziladi: a) *abroʻkamon*, *xamirturush*, *roʻyob*, *poydevor*, *poyustun*, *dilshikasta* kabi soʻzlarda izofa koʻrsatkichi -(y)i qoʻllanmaydi; b) *dardisar*, *bargikaram*, *bahridil*, *obihayot*, *obizamzam*, *obiravon*, *margimush*, *mardikor*, *taxtiravon* kabi soʻzlarda -(y)i izofiy koʻrsatkichi saqlanadi.⁵

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, izofali birikmalar oʻzbek tilida koʻplab uchrashi mumkin. Bunday soʻzlarning tarkibga ajratilmasligini yuqorida koʻrib oʻtdik. Sababi ular tarkibida kelayotgan -i izofasi oʻzbek tili uchun xos boʻlmay, fors tilidan shu holatda kirib kelgan.

References:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. – T.: Tamaddun, 2022. – bet 121.
2. Ҳожи́ев А. Ҳо́зирги ўзбек тилида форма яса́лиши. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – бет 80.
3. Ҳожи́ев А. Ўзбек тили сўз яса́лиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – бет 168.
4. Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – T.: Fan, 2008. – bet 436.
5. Mengliyev B. va boshq. Oʻzbek tilining soʻz yasaliishi oʻquv lugʻati. – T.: 2007. – bet 142.
6. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon OʻGʻli. "Qozoq Va Oʻzbek Tilidagi Modal SoʻZlar ChogʻIshtirmasi." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 27-33.
7. Ogli, Nodirbek Khabibillayev Nosirjon. "ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK WITH COMPLEX MORPHOLOGICAL COMPOSITION." *Next Scientists Conferences*. 2024.
8. Nosirjon Oʻgʻli, Nodirbek Khabibullaev. "ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK LANGUAGE THAT ARE DIFFICULT TO SEGMENT." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.
9. Nosirjon oʻgʻli, Xabibullayev Nodirbek. "ANALYSIS OF SOME WORDS WHICH ARE DIFFICULT TO DISTRIBUTE INTO UZBEK LANGUAGE." *International journal of artificial intelligence* 4.03 (2024): 592-594.

³ Mahmudov N. Oʻzbek tilining katta imlo lugʻati – Toshkent: Kafolat print company, 2023.17-b.

⁴ Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. 263-б.

⁵ Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари. Ф. ф. ф. д. дисс. – Фарғона, 2020-йил.